



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 6-son.

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV

Dilshod KENJAYEV

Maqsudxon YO'LDOSHEV

Nizomiddin MAHMUDOV

Nargiza RAHMONQULOVA

Sirojiddin SAYYID

Mamatqul JO'RAYEV

Nasirullo MIRKURBANOV

Jabbor ESHONQULOV

Lutfullo JO'RAYEV

(bosh muharrir o'rinbosari)

Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV

Ergesh ABDUVALITOV

Manzura DADAXO'JAYEVA

Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nigora O'ROLOVA

Feruza MUSAYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar

ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98)121-74-16,

(71)233-03-10,

(71)233-03-45,

(71)233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.06.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamituras. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ____ Adadi 5350 nusxa. Bahosi kelishi bilan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Shoira Normatova. Mutolaa jozibasi va qudrati	3
Bashorat Bahridinova, Sh.Rahimova. Uzlusksiz ta'lim bo'g'inlarida ravish turkumini o'qishga doir muammolar	5
ADABIY TAQVIM	
Nurbay Jabborov. Furqat fenomeni	8
METODIK TAVSIYA	
Zulfiya Mamarajabova. Maxsus maktabda kitobxon o'quvchini tayyorlash – davr talabi	11
Ma'mura Movjidova, M.Parpiyeva. Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	13
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Diyora Nurimova. Ot so'z turkumini o'rganishda klaster texnologiyasidan foydalanish	15
Shahnoza Abdurajabova. O'quvchi husnixati – til o'qituvchilari mehnati ko'zgusi	17
Rayxona Bo'riyeva. Dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish	18
Zulayho Nishonova. Xorijiy til ta'limida ta'lim texnologiyalarining o'rni	19
Azamat Azimov. Xorijiy til ta'limida kognitiv kompetensiya	20
Gavharoy Yuldashova. Ma'naviyat soatlarida "Keys-stadi" metodidan foydalanish	20
TAHLIL	
Zohida Muqimova. Bibliotekalarning lingvopoetik olami	21
Umid Xo'jamqulov. Kumushning so'nggi maktubi	23
Gulnoz Sattorova. "Qoraqush yulduzining sin" hikoyasida til falsafasi	25
TADQIQOTLAR	
Akbarjon Hasanov. Eritetlarning pragmatik va lingvopoetik tahlili	26
Saida Ikramova. Olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasining maqollarda ifodalanishi	27
Yusuf Hojiyev. Xalq og'zaki ijodidagi shaxs ma'naviy sifatlari tahlilining konseptual asoslari	29
Odil Fazilov. Contrastive study of interjectional phraseological units in the english and uzbek languages	32
KICHIK TADQIQOTLAR	
Darmonoy O'rayeva, Munis Jo'rayeva. Oy haqidagi topishmoqlarda "bir" raqamining poetik vazifasi	34
Shahodat Ziyayeva. O'zbek va fransuz maqollari tarjimasida asliyatga qanday erishiladi?	35
Elmurod Nasrullayev, Madina Narziqulova. Oybek ilmiy asarlarida Navoiy dahosi talqini masalalari	37
Shahnoza Aliyeva. Transformatsiya va uning lingvistik maqomiga doir qarashlar	38
Durdona Nurmuhammedova. Xorijiy tillarni o'rganishda mamlakatshunoslikka oid matnlardan foydalanish	39
Dildora Umarova. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari	40
ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ	
Кодирджон Носиров. Сценарий первого конкурса чтецов произведений А.С.Пушкина «Заветная лира»	41
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Сауле Турланова. Самостоятельная работа студентов на занятиях по русскому языку	43
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Сурайё Шарипова. Формирование мировоззрения у студентов вуза в логике компетентного подхода	45
Ферузахон Якубова. Влияние мультимедиа технологий на психологическое состояние студентов	46
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Светлана Ярцева. Билингвизм как форма взаимодействия языков	47
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Саодат Умдиева. О «Философическом письме» П.Я.Чаадаева	49
Нодира Асманова. Мифологические образы и мотивы в узбекских народных сказках	50
Амина Фаттахова. Особенности образной системы в творчестве А.Ганиевой	51
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Дилбар Тажидбаева. Использование языкового портфолио при обучении детей младшего школьного возраста	53
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	
Майя Эм. Использование информационно-коммуникативных технологий при изучении иностранных языков	55
Беккенбаур Реймов, Айшолпан Ниязова. Экспресс-вариант занятия по изучению структуры английских фразеологизмов	56
Нигина Мирзаева. Фразеологизмы при преподавании испанского языка как иностранного	57
Нилуфар Барноева. Роль корпусной лингвистики при изучении английского языка	59
К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА	
Шоира Машарипова. Это истинная поэзия	61
ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ	
Динара Зайнутдинова, Маргарита Булычёва. Педагог-мыслитель	63



jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Darmonoy O'RAYEVA,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori;

Munis JO'RAYEVA,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy
xodimi, falsafa fanlari doktori

OY HAQIDAGI TOPISHMOQLARDA "BIR" RAQAMINING POETIK VAZIFASI

Topishmoqlar borliqdagi narsa-hodisalar haqida yaratiladi. Ularda raqamlar jumboqlanayotgan narsani topishga ishora qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Jumladan, bir soni topishmoqlarda eng ko'p qo'llaniladigan raqamlardan biri bo'lib, dunyodagi bitta, ya'ni yakka-yu yagona, yolg'iz, tanho narsalarni ilg'ashga turtki beradi. Masalan, oy, quyosh, ota, ona haqida aytilgan topishmoqlarda, albatta, bir soni uchrashi tabiiy, chunki ular dunyoda bitta.

*Bir parcha patir,
Olamga tatir.¹*

Topishmoq matnida "bir" sonining satr boshida keltirilgani shunchaki tasodif emas. U topishmoqdagi barcha so'zlar bilan vertikal va gorizontall joylashuviga ko'ra sintaktik va mantiqiy jihatdan to'liq aloqaga kirisha oladi. Jumladan, "bir parcha", "bir patir", "bir olam", "bir (o'zi) tatir" ko'rinishida. Bunda bir raqami olamning bittaligiga, yakka-yu yagonaligiga, unda bor narsalar bir-biri bilan bog'liqligiga, oy ham uning bir parchasi bo'lib, tanho ekanligiga, lekin oy bir parchagina bo'lsa-da, butun olamni yoritib turishiga, nuri barchaga tatishiga ishora qilmoqda.

Mazkur topishmoqdagi jumboq "bir parcha patir" metaforasidir. Shu uchala so'z oyga shartli ishorani o'zida ifodalab kelayotir. Undagi "bir" so'zi, avvalo, borliqdagi tanho narsa-hodisalarni esga olishga undaydi. Masalan, Oy – bitta. U osmon yoritgichi. Quyosh ham bitta. U ham samo yoritgichlaridan biri.

Bu o'rinda "parcha" so'zi oyning osmon yoritgichlaridan biri ekanligini, lekin uning quyoshga nisbatan kichikroqligini anglatadi. To'lin (badr) oy ko'rinishi jihatidan patirga o'xshashi rost. "Parcha patir" birikmasi orqali oyning ikki parcha – avval yarim oy (hilol), keyin to'liq dumaloq ko'rinishdagi to'lin oy (badr)ga aylanishi anglashiladi.

Oyning yarim ko'rinishi haqida yaratilgan topishmoqlar ham bor:

*Yarimta patir,
Olamga tatir.
Yoki:
Yuqoriga yarimta non qo'ydim,
Azonda qarasam yo'q. (8–9-betlar)*

Bu topishmoqlarda yarimta patir yoxud yarimta non oy obraziga ishora bo'lib, qo'shimcha ravishda yana oyning makoni yuqori, ya'ni osmon ekani, tong otib, quyosh nurlari tarala boshlashi bilan u ko'zga ko'rinmay qolishi haqida ham bildirib o'tilmoqda.

"Patir", "non" so'zlari oyning obrazli ifodasiga aylangan. Ularning oy obraziga ko'chirilishi muayyan tarixiy-mifologik asoslar bilan bog'lanadi. Uning asosi mif-marosim-folklor yo'nalishida ochilib boradi.

Oyning paydo bo'lishi haqida bir qator mif (asotir)lar yaratilgani ma'lum. Ularda Oy va quyosh er-xotin, yulduzlar esa ularning bolalari deb qaralgan va talqin qilingan. Shu mifologik tasavvur-tushunchalar asosida yaratilgan topishmoqlar ham bor. Ularda shunday deyiladi:

*Bir otasi, bir onasi,
Necha yuz ming bolasi. (Quyosh, oy, yulduzlar).
Yoki:
Onasi bitta,
Bolasi mingta. (Oy va yulduzlar). (9–10-betlar)*

Xalqimiz orasida "Oydan bola so'rash" udumi ham shakllangan. Bu udum oy yangi chiqqanda amalga oshiriladi. Farzand kutayotgan kelinchaklar yosh bolalar vositasida oydan bola so'raydilar. Aniqrog'i, farzandtalab kelinchak yoki uning qaynonasi biror bolaga sovg'a-salomlar, yegulik yoki shirinliklar berib, oyga boqib: "Oymomojon, oymomo. Manga kulcha tashla, yangamga bacha tashla", – deya olqish aytiradilar.

Umuman, oyga qarab olqish aytish udumi xalqimizda keng tarqalgan. Keksalar yangi oy chiqqanda, uning tikka yoki botiqligiga qarab bashorat qiladilar, ya'ni "Tikka oyim – tinch oy, yotiq oyim – botiq oy" yoki: "Oyni ko'rdim – omonlik, hech ko'rsatma yomonlik", deb aytadilar.

Ko'rinadiki, insonlar hamisha oyga e'tiqod bilan munosabatda bo'lishgan. Oyni o'zlariga yaqin olib, unga qarata olqishlar aytib, homiylik qilishini kutishgan. Oy shu e'zozlanishi sababli hatto nondek e'zozli narsaga tenglashtirilmoqda. U patir nonga o'xshatilmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, "bir" raqami oy uchun doimiy va qat'iy sifatlovchi son emas. Oyga nisbatan ikki raqami sifatlovchi belgi bo'lib kelgan topishmoqlar ham mavjud.

*Usti nog'ora,
Osti nog'ora.
Yuz ming gul,
Ikki dasta gul,*

Javobi yer, osmon, yulduzlar va oy bo'lgan bu topishmoqda ustdagi va ostdagi nog'oralar yer va osmonga ishora qilib, jumboqlanayotgan narsa – oyning samodan turib butun zaminga nur taratishi, hamma yoqni yoritishi, yuz ming gul atrofga ifor taratib turgani yangligi tevarakka

yorug'lik taratayotgan yulduzlar, ikki dasta gul, ya'ni yarim va to'lin oylar birlashib, yaxlit (dasta) oy bo'lishini anglatmoqda.

Oy haqidagi boshqa topishmoqlarda uning "olamga yetadigan bir kosa sut" ekani ta'riflanadi.

Quyidagi topishmoqda oy obrazi bir tup lolaga o'xshatilmoqda:

Osti nog'ora,
Usti tog'ora,
Qirq ming boychechak,
Bir tup lola.²

Javobi yer, osmon, oy va yulduzlar bo'lgan ushbu topishmoqda nog'ora yerni, tog'ora osmonni, qirq ming boychechak ko'p sonli yulduzlarni, bir tup lola o'zida metaforizatsiyalashtirib kelmoqda. Bunda lola va oyning bir-biriga o'xshatilishiga ularning har ikkalasi bag'rida dog'i borligi asos qilib olingani shubhasiz.

Osti gumbaz,
Usti gumbaz.
Bir shapaloq,
Qirq qumaloq. (8-bet)

Ushbu topishmoqda oyning yuqoridan ko'rinishiga qarab, hajmi bir shapaloqday ekani bildirilmoqda. Uning atrofidagi yulduzlar esa mitti ko'rinishdagi qumaloqlarga o'xshatilmoqda.

Oy haqidagi boshqa yana bir topishmoqda u anorga tashbehlantirilgani kuzatiladi:

Tom ustida bir anor,
Hadding bo'lsa ushlab ol. (9-bet)

Oy to'lishganda och qizg'ish tusga kiradi. Shuni nazarda tutgan holda u anorga o'xshatilmoqda. Oy yerdan ancha olisda bo'lganligi uchun yiroqdan qaraganda turli tuslarda namoyon bo'ladiki, topishmoqda mana shu haqiqatga ishora bor. Yana bir topishmoqda aytilganiday, unga uzatgan bilan qo'l yetmaydi. U hammaga birday.

Ayrim topishmoqlarda oyning kumushga yoxud kesgan bilan ado bo'lmas keragadagi korson quyruqqa, yana bolalarini izidan ergashtirib tomoshaga chiqqan chinni qizga o'xshatilgani kuzatiladi.

Yangi topishmoqlarda oyning patirga, shirmoy, bar-kash, kulcha kabi non turlariga o'xshatilishi saqlanib kelmoqda. Bundan tashqari uning hilol, ya'ni yarim ko'rinishi qilichga, oyboltaga, to'lin holati esa yumaloq oltin tarvuzga, kattakon yog'siz chiroqqa, hatto qo'ylari (yulduzlar)ni boqib yurgan podachiga o'xshatilgani ham kuzatiladi.

Xullas, xalqimizning oy haqida yaratgan topishmoqlari samo yoritgichlari to'g'risidagi topishmoqlar orasida alohida turkumni tashkil qiladi. Ularda "bir" raqami oyning sifatlovchilaridan biri sifatida uning olamda bitta ekanligini bildirishga xizmat qiladi. U patir, non so'zlari bilan birikkan-da oy bilan bog'liq xalq ishonch va udumlari mavjudligiga, lola so'zi yordamida oy yuzida dog'i borligiga, anor so'zi orqali oy to'lishganda qizg'ish tusga kirishiga, shapaloq so'zi orqali oyning osmondan ko'rinishi hajmiga ishora qilib keladi.

¹Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. Nashrga tayyorlovchi: Z.Husainova. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 8-bet. (Ushbu manbadan olingan keyingi iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.)

²Inv№1528\9. To'plovchi: Andaqul Qoraboyev. Samarqand viloyati Bulung'ur tumani, Yozib oluvchi: Z.Husainova.

Shahodat ZIYAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK VA FRANSUZ **MAQOLLARI TARJIMASIDA ASLIYATGA QANDAY ERISHILADI?**

Har bir xalqning adabiy xazinasida ikki oltin fond borki, biri o'sha xalqning o'zi yaratgan asarlari bo'lsa, ikkinchisi boshqa xalqlar adabiyotidan tarjima orqali kirib kelgan hikmatlardir. O'zbek xalqining milliy manzarasi, asosan, o'z asarlarida aksini topadi. Tarjima asarlari orqali esa kitobxonlar o'zlariga kerakli axborotni oladi, boshqa xalqlar madaniyatiga chuqur kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maqol bir tildagi avlodning avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, mazmundor, qisqa va lo'nda mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan turg'un iboradir. Ularda ajdodlarning jamiyat va tabiatga munosabatlari, tarixi, ruhiy holati, estetik tuyg'ulari, ijobiy va salbiy fazilatlari haqidagi mulohazalari aks etadi. Ularning xalqchilligi ma'nodorligini yillar oshib ham yo'qotmasligini

ta'minlab turadi. Mashhur tilshunos V.Dal aytganidek, "Maqollar ortidan xalq tomon borish mumkin ekanligini hech kim rad eta olmaydi". (1: 56)

Xalq maqollari og'izdan og'izga o'tishi bilan sayqallanib boradi. Kelib chiqishi, tarixiga borib taqalsa ham, ular eskirmaydi va iste'moldan chiqmaydi. Bugungi kunda maqollarni tadqiq qilish til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat tilshunoslar, balki etnograf, madaniyatshunos, faylasuf va psixologlar tomonidan ham o'rganilmoqda.

Maqollar majoziy va ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Masalan: *Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi*.

Ushbu maqol esa ko'chma ma'noda qo'llaniladi: *Pul qo'lining kiri*.